

XOTIN-QIZLARNI ILMIY FAOLIYATGA JALB QILISHDA YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI

Maftuna Xayrullayeva O'ktam qizi

QarDUPI Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Tel:974606766

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6067394>

*“Ayollarga ilm berish-jamiyatni ilmi,
ma'rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani
hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi¹.
Shavkat Mirziyoyev*

O'zbekistonda mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq xotin-qizlarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor berildi. Shu sababli mamlakatimiz olib borilayotgan xotin-qizlarga oid islohotlar hamda ijtimoiy faol ayol va uning axloqiy xatti-harakatlarining jamiyat ravnaqidagi o'rnini tahlil etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan hisoblanadi. Davlat va jamiyat qurilishi, ishlab chiqarish, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, fuqarolik institutlari faoliyatida ayollarning ijtimoiy faolligi nihoyatda zarur bo'lib, ulardagi ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish va kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Zero, ular jamiyat va millatning tayanchi, shaxsning fazl-u kamoli va axloqiy barkamolligida asosiy o'rin egallovchi insonlardir.

So'nggi yillarda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari va imkoniyatlari kengaytirish borasida (2019-yil 2-sentabr “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-562-sonli Qonun, 2021-yil 5-martdagi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” (PQ-5020-son qarori), “2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”) bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-

¹ Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi .-Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. bet -247

o'ringa ko'tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi².

Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'zining. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asarlarida O'zbekiston Respublikasida gender siyosati va bu sohada ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish yuzasidan dolzarb vazifalarni keltirib o'tganlar:

- ❖ xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;
- ❖ xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini yanada oshirish;
- ❖ yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash;
- ❖ ehtiyojmand xotin-qizlarning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatishning samarali usul va vositalaridan keng foydalanish;
- ❖ barcha hududlarda xotin-qizlarning bandligini to'la-to'kis ta'minlash imkonini oshiradigan maxsus tizim yaratish va uning samarali ishlashini yo'lga qo'yish;
- ❖ xotin-qizlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni, ayniqsa, qishloq joylaridagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- ❖ xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish;
- ❖ jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ❖ xotin-qizlar bilan bog'liq muammolarni yechishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash borasida ishlarni tizimli tarzda olib borish.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash-islohotlarimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi³.

² <https://lex.uz/docs/-5466673>

³ Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi .-Toshkent: "O'zbekiston", 2021. bet -247

Hozirgi kunda ta'limda xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida keskin tafovutlar kuzatilib, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarining 70 foizdan ortig'ini ayollar tashkil etmoqda.

Ta'limning pedagogika va gumanitar fanlar (filologiya, pedagogika, psixologiya, madaniyat va san'at) yo'nalishlarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 68 foizni tashkil etsa, muhandis-texnik (axborot texnologiyalari, energetika, injeneriya) va huquqshunoslik sohalarida ularning ulushi hamon kamligicha (24 foiz) qolmoqda.

Barchamizga sir emas, ayollar va qizlarning ilm-fan bilan to'laqonli foydalanishlariga teng imkoniyatlar yaratilishi, shuningdek xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish maqsadida 2015-yil 22-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida 11 – fevral “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” sifatida e'lon qiluvchi rezolutsiya qabul qilingan. Rezolutsiyaning asosiy maqsadi ayollar va qizlarning ilmiy faoliyatga jalb etishdan iboratdir.

Davlatimiz tomonidan ayollarni ilm-fanga jalb etishga katta e'tibor qaratilib, jumladan, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Olima ayollar uyushmasi bir qator mas'ul organlar bilan hamkorlikda respublika va shahar miqyosida ayollar va yoshlar orasida turli anjumanlar, tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda

Jumladan, 2021 yil 11-fevral kuni TDSHuda “XXI asr ilm – fani va ta'lim sohasida ayollar: yutuqlar va muammolar” mavzusida xalqaro onlayn davra suhbat tashkil etilib, xotin-qizlarni ilm-fanga jalb etish masalasi yil davomida turli shakllarda davom ettirildi. Ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan xotin-qizlarning faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 2021 yil 18 mart kuni «Olima ayollarning yutuqlari va innovatsion g'oyalari» mavzusida ilm-fan festivali o'tkazildi. Aynan Olima ayollar uyushmasi raisi tomonidan 2022 yildan boshlab iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish bo'yicha «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» hamkorlik mexanizmi ishga tushirilishi mumkinligi, aytilgandi. Bu – muhokama uchun e'lon qilingan «Iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hukumat qarori loyihasida o'z aksini topgan. Qaror iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ular bilan alohida ishlash, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va rag'batlantirish, shuningdek, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashga qaratilgan tizimli o'qishlarni tashkil etish va kadrlar zaxirasiga kiritish ishlarini takomillashtirish maqsadida qabul qilinishi nazarda tutilgan. Unga ko'ra, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri

yo'naltirish va rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tartibi to'g'risidagi nizom qabul qilinadi.

Shuningdek, mahallalar va ta'lim muassasalarida iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash tartibi, iqtidorli yosh xotin-qizlarni iqtidor va qobiliyatlari, qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish va ro'yobga chiqarish tartibi, iqtidorli yosh xotin-qizlarni rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tartibi belgilanadi. Iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va rahbarlik lavozimlariga tayyorlashni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ham tasdiqlanadi.

Qaror bilan respublikamizda har yili mart oyining birinchi haftaligi «Xotin-qizlarni e'zozlash haftaligi» deb e'lon qilinishi mumkin. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi mahallalardagi «Bibixonim maktablari» jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan qonunchilik hujjati loyihasini tayyorlaydi. Shuningdek, 2022 yil 1 mayga qadar «Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot instituti bilan birgalikda «Ayol – lider» o'quv-ma'rifiy elektron platformasini yaratish va ishga tushirish choralarini ko'radi.

Hujjatda «iqtidorli yosh xotin-qiz» tushunchasiga izoh berilgan. Ta'rifga ko'ra, u – yuqori darajada rivojlangan qobiliyat, aqliy koeffitsiyent va intellekt hamda bir yoki bir necha sohada muayyan natijalarga erishishda o'ziga ishonchining yuqori darajasiga ega bo'lgan 30 yoshdan oshmagan ayoldir.

Innovatsion rivojlanish vazirligi respublikadagi xotin-qizlarni ilm-fanga keng jalb qilish, fan-ta'lim va iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlarning yangi g'oya va ishlanmalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun «Olima ayollar grantlari» tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanlovini o'tkazadi.

Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida «Iqtidorli qizlar» uyushmasi va «Lider qizlar» klubi faoliyat ko'rsatadi.

Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talaba (o'quvchi) qizlari o'rtasida har yili ularning iqtidor va qobiliyatlari, qiziqishlarini ro'yobga chiqarishga hamda liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan «Eng iqtidorli talaba qiz», «Tashabbuskor talaba qiz», «Lider talaba qiz», «Eng yaxshi innovatsion g'oya va loyiha muallifi», «Eng yaxshi ixtirochi va tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida bajariladigan «Olima ayollar grantlari» tashabbuskor amaliy va innovatsion tanlovi o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarni ilmga jalb etish masalasi bu maktab davrdan boshlanishi bu albatta maqsadga muvofiq va bu boradagi qilinishi rejalashtirilayotgan ishlar tahsinga sazovor. Bunda maktablarda ham “Ustoz-

shogird” an’anasini yo`lga qo`yish lozim, deb hisoblayman. Chunki ustozlar bizga doimo to`g`ri yo`l ko`rsatuvchi chiroq vazifasi bo`lib kelishadi. Shuningdek, yuqorida keltirib o`tilgan takliflarni amaliyotga joriy etilishi xotin-qizlarimizni ilmiy faoliyatga jalb etishda samarali natijalarni ko`rsatadi degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston strategiyasi .-Toshkent: “O`zbekiston”, 2021. bet -247
2. <https://lex.uz/docs/-5466673>
3. S.Djasanova. Jamiyat hayotida xotin-qizlar va ularning ijtimoiy faolligi.- Toshkent: “Tafakkur qanoti”